



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

3. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
4. Herzberg F. Work and the Nature of Man. – Cleveland: World Publishing Company, 1966.
5. Vroom V. Work and Motivation. – New York: John Wiley & Sons, 1964.
6. Lazear E. Personnel Economics. – Cambridge: MIT Press, 1995.
7. Armstrong M. A Handbook of Human Resource Management Practice. – London: Kogan Page, 2009.
8. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. – Москва: Норма, 2009.
9. Мелник В.А. Экономика труда. – Москва: Инфра-М, 2010.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy ta’minlashni takomillashtirishga oid qarorlar. – Toshkent.
11. U.S. Department of Defense. Military Compensation Background Papers: Compensation Elements and Related Manpower Cost Items. – Washington, 2018.
12. NATO. Military Pay and Benefits in NATO Countries. – Brussels, 2019.

UDK:336.02

MOLIYAVIY SIYOSAT VA IJTIMOIIY BARQARORLIK OMILLARI

ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА И ФАКТОРЫ СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ

FISCAL POLICY AND SOCIAL STABILITY FACTORS

Nazirboyev Dilshunos Doniyor o‘g‘li
O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy siyosat va uning vositalari hamda uning ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush darajasiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy siyosat asosiy bo‘g‘inlari sanalgan byudjet-soliq siyosati va pul-kredit siyosati kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi farovonligini yuksaltirishdagi o‘ni ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, moliyaviy siyosatning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli “tashabbusli byudjet” jarayonlarining yillar davomida ko‘rsatgan natijalari orqali keltirilgan hamda uning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliya, moliyaviy siyosat, ijtimoiy barqarorlik, fiskal siyosat, davlat byudjeti, ijtimoiy xarajatlar, soliq imtiyozlari

В данной статье анализируется финансовая политика и ее инструменты, а также ее влияние на социальную стабильность и уровень жизни населения. Рассматривается также роль бюджетно-налоговой политики и монетарной политики, являющихся основными компонентами финансовой политики, в сокращении бедности и повышении благосостояния населения. Кроме того, на основе результатов процессов «инициативного бюджета» за прошедшие годы представлена роль финансовой политики в обеспечении социальной стабильности, а также разработаны научные выводы и практические рекомендации по повышению ее эффективности.

Ключевые слова: финансы, финансовая политика, социальная стабильность, фискальная политика, государственный бюджет, социальные расходы, налоговые льготы.

This article analyzes financial policy and its instruments, as well as its impact on social stability and the standard of living of the population. Also, the role of budget-tax policy and monetary policy, which are the main components of financial policy, in reducing poverty and improving the well-being

of the population, is considered. In addition, the role of financial policy in ensuring social stability is presented through the results of the “initiative budget” processes over the years, and scientific conclusions and practical recommendations are developed to increase its effectiveness.

Keywords: finance, financial policy, social stability, fiscal policy, state budget, social spending, tax incentives

XXI asrda iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik bir-biridan ajralmas jarayon sifatida qaralmoqda. Har bir mamlakatning moliyaviy siyosati — bu nafaqat iqtisodiy o‘shishni, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks tizimdir. Davlatning moliyaviy siyosati orqali byudjet, soliq, kredit va ijtimoiy transfertlar mexanizmi orqali aholining farovonligi ta’minlanadi hamda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, ayollarning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirish, ular bandligini ta’minlash maqsadida ayollar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsad qilinadi. Shuningdek, sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish hamda sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish ko‘zda tutilgan [1].

Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy siyosatning muhim bo‘g‘ini hisoblangan qat’iy fiskal siyosatning ham roli yuqori sanaladi. Xususan inson taraqqiyotini yuksaltirishda, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy siyosiy omillar ta’sirini oshirishda daromadlar tengsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. “State of the Nordic Region 2020” hisobotida Skandinaviya davlatlarida aholi daromadlari tabaqalanishi Jini indeksi bo‘yicha tenglikka erishib kelinayotganligini qayd etib o‘tishadi [2]. AQShda boylarning markazlashuvi darajasi yuqori bo‘lib, xususan 1 foiz aholi 40 foizga yaqin boylarni nazorat qiladi. Ushbu tendensiyaning vujudga kelishida kapitaldan daromadning oshishi, mehnat bozoridagi tengsizlikning kuchayib borishi va soliq siyosatidagi imtiyozlarning yuqori daromadli aholi qatlami uchun manfaatli ahamiyatga ega bo‘lishi bilan yuz berganligini ta’kidlash lozim [3].

Pul, pul aylanishi, pul tizimi umuman olganda, monetar ya’ni pul-kredit siyosati ham iqtisodiyotning eng asosiy markaziy muammolaridan biri, ya’ni “qon tomiri” hisoblanadi. Pul tizimining to‘g‘ri faoliyati daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishiga hayotiy kuch beradi. Yaxshi ishlayotgan pul tizimi ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikdan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Aksincha, yomon ishlayotgan pul tizimi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan yana muhim omillarga ya’ni ishsizlik, inflyatsiya va shuningdek, boshqa salbiy inqirozlarga sabab bo‘ladi [4].

Bundan tashqari, aholini ijtimoiy himoya tizimi hisoblangan pensiya va nafaqalar bilan o‘z vaqtida va yetarli miqdorda ta’minlash maqsadida byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish hamda ulardan foydalanish, moliya tizimini shaffofligini ta’minlash uchun ochiq byudjet siyosatini olib borish, jamoatchilik asosida shakllangan byudjetni manzilli hamda unumli sarflanishini nazorat qilish moliyaviy siyosatning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda zarur vositalardir.

Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy siyosatning o‘rnini investitsiya, soliqlar, ijtimoiy manfaatlar, transfertlar, davlat moliyasining uch asosiy funksiyalari, daromadlar tengsizligi orqali xorij olimlardan Richard Musgrave, Joseph Stiglitz, Alesina Alberto va Perotti Roberto kabilar o‘zlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlarida asoslab berishga harakat qilgan [5].

Shuningdek, O‘zbekiston olimlaridan M. X. Baratova, B. A. Nurmatov, A. V. Vahobov, T.S. Malikov, Ch. A. Kulmatov, N. H. Haydarov, S. N. Baratov, U. A. Vosiqov, A. A. Usmanova, va boshqalarning ilmiy ishlarida davlat moliyasining mazmuni, fiskal siyosat, davlat transfertlari vositalari, ijtimoiy-moliyaviy siyosat, pensiya jamg‘armalarining ijtimoiy muvozanat va farovonlikni ta’minlashdagi rolini ilmiy-nazariy asosda yoritib o‘tgan hamda barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilgan [6]. Yana shuni keltirib o‘tish joizki, turli xil moliyaviy vositalar orqali olib boriladigan siyosatning ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini umumiy, yaxlit, kompleks ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Bu holat tanlangan mavzuning dolzarbligini o‘zida namoyon etadi.

Ushbu tadqiqot jarayonida ilmiy mushohadalar, jadval va grafik, tizimli tahlil, statistik guruhlash, taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan.

Moliyaviy siyosat, ijtimoiy barqarorlik va uning omillari tushunchasiga ko‘plab turli-xil qarashlar, ta’riflar, konsepsiyalar mavjud, lekin bu bir nechta tushunchalarning aniq yagona ta’rifi bor deyish xato. Chunki bunday qarashlar zamon va makon kabi sabablarga ko‘ra boshqa joy va vaqtda o‘z mazmunini yo‘qotishi mumkin. Eng avvalo hozirgi holatda ularning mazmun mohiyatini anglab olish hamda kompleks tahlil qilish uchun bir qancha ta’riflar keltirish o‘rinlidir.

Moliyaviy siyosat – bu takror ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish hamda takror ishlab chiqarish uzluksizligi uchun moliyaviy resurslar bilan ta’minlash maqsadida ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash, va qayta taqsimlashdagi barcha chora tadbirlar yig‘indisidir. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari bo‘lgan byudjet, soliq, pul, kredit, baho (narx) investitsion, ijtimoiy moliyaviy, boj siyosatlari ijtimoiy barqarorlikning bosh omillari hisoblanadi [7].

Moliyaviy siyosat hokimiyatning u yoki bu maqsadiga erishish vositasi emas, balki, jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy muammolarini hal qilish vositasi bo‘lishi shart [8].

Ijtimoiy barqarorlik deganda jamiyatning turli guruhlari o‘rtasidagi muvozanat, adolat, teng imkoniyatlar, fuqarolarning iqtisodiy-ijtimoiy farovonligini ta’minlash, ijtimoiy ziddiyatlar, beqarorlikning oldini olish, va iqtisodiy-ekologik-ijtimoiy sohalarni qamrab oladi. Bu davlatning o‘z fuqarolari uchun ijtimoiy himoya va rivojlanishni ta’minlashini, tenglikni yaratishini, yordamga muhtojlarga ko‘mak berishini anglatadi hamda barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi

Ushbu tushunchani moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, aholining real daromadini oshishi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy soha hisoblangan ta’lim, sog‘liqni saqlashga ajratayotgan byudjet mablag‘larining jamiyat turmush darajasiga mutanosibliigi ijtimoiy barqarorlik garovidir. Shuningdek, pul-kredit siyosati orqali inflyatsiyani jilovlash bilan bozordagi narxlarga ta’sir qilish muhim rol o‘ynaydi.

Amaldagi moliyaviy siyosatdagi islohotlar natijasida byudjetdan ajratilgan mablag‘larning manzilliligi va mavjud ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan “tashabbusli byudjet” joriy etildi [9]. Dastlab, yilda faqat bir marotaba o‘tkazilgan ijtimoiy jarayon 2022-yildan boshlab, yilda ikki marotaba o‘tkazila boshlandi, ya’ni 1-mavsum va 2-mavsum.

Har bir ovoz, ijtimoiy faol aholi tomonidan shakllangan mablag‘lar “tashabbusli byudjet” orqali qanday natijaga erishganini quyidagi solishtirma jadval orqali tahlil qilsak (1-jadval).

1-jadval


2023-2025-yillarda o‘tkazilgan “Tashabbusli Byudjet” jarayonlari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar [10].

Tavsif	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
	1-mavsum	2-mavsum	1-mavsum	2-mavsum	1-mavsum	2-mavsum
Ajratilgan byudjet (mlrd. So‘m)	2882.9	1424.4	3390.5	2271.7	3359.8	3337.8
Loyihalar soni	55970	49464	35575	27474	28399	22263
Saralashdan o‘tgan loyihalar soni	33681	33489	29019	23246	23457	18734
Rad etilgan	22289	15975	6560	4228	4962	3529
Barcha berilgan ovozlar soni (ming)	16129.8	18115.1	11735.7	9081.6	10450.4	11136.7
G‘olib loyihalar soni	2985	1192	2824	1950	2419	2367
G‘olib loyihalar summasi (mlrd.)	2788.3	1319.2	3269	2333.7	3037.7	3223
G‘olib loyihalar to‘plagan ovoz (ming)	12018.1	6301.4	8876	7222.3	8099.5	9323
Qanoatlanish darajasi (%)	75	35	76	80	78	84
Mahalla soni	9449	9435	9443	9447	9445	8553

G‘olib bo‘lgan mahallalar	2494	1014	2295	1684	2011	1973
Mahallalar qanoatlanishi (%)	26	11	24	18	21	23
Aholi jalb etilishi darajasi (%)	45	50	32	25	28	30
G‘olib loyiha bo‘yicha eng yuqori ovoz	25727	22120	14918	14663	14634	18017
G‘olib loyiha bo‘yicha eng past ovoz	126	171	10	51	26	31

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, 2023–2025-yillarda tashabbusli byudjet doirasida ajratilgan mablag‘lar hajmi barqaror yuqori o‘shishni saqlab kelmoqda. Misol uchun, 2023-yilda jami ajratilgan mablag‘lar hajmi 4307.3 mlrd. so‘m edi, bu sonlar 2025-yilga kelib, 6697.6 mlrd. so‘mga yetdi. Lekin shuni ham ta’kidlash joizki, barcha yillarda ajratilgan mablag‘lar 1-mavsum 2-mavsumga nisbatan har doim ko‘proqni tashkil qilgan. Masalan, 2023-yil 1-mavsum 2882.9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2-mavsum bu summa oldingi mavsumga nisbatan ikki barobar (51.6%)ga kamaygan. Shuningdek ajratilgan mablag‘ bilan g‘olib loyihalar summasi orasida mutanosiblikni guvohi bo‘lishimiz mumkin, hatto 2024-yil 2-yarmida g‘olib loyihalar summasi (2333.7) ajratilgan mablag‘ga (2271.7) nisbatan ko‘proqni tashkil qildi. Tashabbusli byudjetda g‘olib bo‘lish uchun eng yuqori ovoz bilan eng past ovoz o‘rtasida juda katta farq bor Masalan, 2025-yil 1-yarmida g‘olib bo‘lish uchun maksimal eng ko‘p ovoz 14634 tani tashkil qilgan bo‘lsa, xuddi shu mavsum loyiha g‘olib bo‘lishi uchun 26 ta ovoz kifoya bo‘lgan. Yurtimizda 2023-2025-yillar davomida, aynan 2023-yil 1-yarmida jami ishtirok etgan mahallalardagi (9449) g‘olib mahallalar (2494) ulushi eng yuqori hisoblangan (26%).

Shu bilan birga, 2024-yilda ajratilgan mablag‘lar hajmi oldingi yilga nisbatan oshgani hisobiga 2023-yildagi tuman va shahardagi o‘rtacha g‘olib loyihalar soni 6-8 tadan 2024-yilda 13-15 taga oshdi [11]. Hududlar kesimida g‘olib mahallalarning sonini tahlil qilsak eng ko‘pi Farg‘ona vodiysi hissasiga to‘g‘ri keladi hamda Respublikada Farg‘ona viloyati yetakchi (374) bo‘ldi. Keyingi o‘rinlarni mos ravishda Toshkent (360) va Samarqand (306) viloyatlari band etishdi. Poytaxt Toshkent shahri bu borada 248 ta mahalla g‘olibligi bilan 7-o‘rinni egallagan bo‘lsa, eng quyi natija Sirdaryo viloyati (128) hissasiga to‘g‘ri keladi. Agar e’tibor berib qarasaq, bu ko‘rsatkichlar hududlardagi aholi va mahallalar sonining ko‘pligi bilan yaqin mutanosibda ekanligiga duch kelamiz. Bu borada to‘liqroq quyidagi xaritagamma orqali issiqlik diagrammasida tanishishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2024-yil “Tashabbusli byudjetda” g‘olib bo‘lgan mahallalar soni [12]

2024-yilgi tashabbusli byudjetda ovoz berish natijasiga ko‘ra sohalar kesimida tahlil qilsak, 1686 ta ichki yo‘llar, 1837 ta umumta‘lim maktabi, 118 ta ko‘cha chiroqlari, 51 ta ichimlik suvi ta‘minoti, 773 ta tibbiyot tashkilotlari va yana qolgan 165 ta boshqa loyihalar g‘olib deb topildi. Buning hisobidan mablag‘lar manzilliligi va samaradorligi ta‘minlanib, oqilona moliyaviy siyosatning bir bo‘lagi sifatida tashabbusli byudjet aholining farovonligi hamda ijtimoiy barqarorligiga ijobiy hissa qo‘shdi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy globallashtirish hamda prognoz qilish qiyin bo‘lgan davrda oqilona moliyaviy siyosat olib borish orqali moliyaviy resurslarni to‘g‘ri shakllantirish, taqsimlash hamda unumli foydalanish barqaror makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga yordam beradi. Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirsak, soliq yuklamalarini kamaytirish pul tushumlarini kamaytirishning o‘rniga teskari samara berib, balki pul oqimlarining tezlashishiga, ishlab chiqarishning rag‘batlantirishiga eng asosiysi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, moliyaviy siyosat shunday olib borilishi kerakki, u siyosat faqatgina yuqori daromad egalari manfaatlariga moslashmasligi kerak. Aksincha bu jamiyatning barcha qatlamiga adolatli tizim vazifasini bajarishi zarur.

Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida moliyaviy siyosatdagi quyidagi amaliy takliflarni berishimiz mumkin:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatda qo‘llaniladigan bojxona siyosatida. nollashtirilgan boj siyosatini joriy etish. Bu orqali mamlakatimizga arzon tovar va xizmatlar kirib kelishini ta‘minlash.

2. Aholi real daromadlarini oshirish orqali ijtimoiy qatlamga ajratiladigan yordam va nafaqalar hajmini kamaytirish. Bu albatta kambag‘allikni qisqartirish siyosati bilan bog‘liq masala hisoblanadi.

3. Tashabbusli byudjetda g‘olib bo‘lgan loyihalarni aniqlashda ovozlarni mahalla aholining kamida 50 foiziga yetsa qo‘shimcha ravishda g‘olib sifatida e‘lon qilish.

4. Talabalarni ijtimoiy qo‘llab quvvatlash maqsadida to‘lov kontraktidan 12 foiz qaytarib olish tartibini soddalashtirish. Ya‘ni bunda to‘lovchi shaxs kontrakt summasini to‘rtga bo‘lib to‘lagan taqdirda, shu yil yakunigacha daromad deklaratsiyasini to‘ldirish muddatini kutib o‘tirmasligini ta‘minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi, 2017-yil. URL: <https://lex.uz/docs/3107036>
2. Jokinen, J., Nilsson, K., Karlsdóttir, A., Heleniak, T., Kull, M., Stjernberg, M., ... & Gassen, N. S. (2020). State of the Nordic Region 2020. Nordic Council of Ministers
3. Taylor, L., Omer, O., & Rezai, A. (2015). Wealth concentration, income distribution, and alternatives for the USA. Institute for New Economic Thinking Working Paper Series, (17).
4. Y. Yusupov. “O‘zbekistonda davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari”. Referat (2013-y).
5. Richard A. Musgrave “The Theory of Public Finance”. McGraw-Hill, 1959. – 628 s.
6. Joseph E. Stiglitz, Jay K. Rosengard. “Economics of the public sector” — fourth edition. W. W. Norton, Incorporated, 2015. – 923 s.
7. Alberto Alesina, Roberto Perotti. “Fiscal adjustments in OECD countries: composition and macroeconomic effects”. (Washington, D.C.): International Monetary Fund, 1996. – 52 s.
8. M. X. Baratova “Aholi farovonligini ta‘minlashda davlat ijtimoiy-moliyaviy siyosatning ahamiyati” — “Science and Education” Scientific Journal 2024. — 8 b.
9. B. A. Nurmatov “Davlat moliyaviy boshqaruvida maqsadli jamg‘armalarning ahamiyati va rivojlanish istiqbollari” — “Science and Education” Scientific Journal 2025. — 7 b.
10. Vahobov A.V, Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: “Noshir” 2011. — 711 b.
11. Ch. A. Kulmatov. Moliya nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” 2021. — 128 b.
12. T. S. Malikov. Moliya: nazariy asoslar. O‘quv qo‘llanma. T.: XK “Nur Durdonalari” 2021. — 296 b.

13. Malikov T. S, Haydarov N. H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi” 2009. — 556 b.
14. Baratov S. N. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda byudjet siyosati yo‘nalishlaridan foydalanish ustuvorliklari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2024. – 24 b.
15. Vosiqov U. A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambag‘allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish: i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2025. – 34 b.
16. Usmanova A. A. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda fiskal instrumentlardan foydalanish istiqbollari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun disser. avto. – T.: 2024. – 28 b.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5370805>
18. Ochiq Byudjet portali. URL: <https://openbudget.uz>
19. Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Tashabbusli byudjet jarayonlari: 2024-yilda erishilgan natijalar yuzasidan axborotnoma”si URL: https://api.mf.uz/media/document_files/1_Annual_2024_PB.pdf

УДК:658

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИ БОШҚАРУВИ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ

THEORETICAL FOUNDATIONS OF MANAGEMENT OF PRODUCTION ENTERPRISES

Хасанова Ситора Исламовна

БухДУ Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси, и.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация

Мақолада ишлаб чиқариш корхоналари бошқарувининг амал қилишига бағишланган илмий қарашларнинг жаҳон хўжалигида ишлаб чиқариш муносабатлари ривожланишини турли босқичларидаги эволюцияси таҳлил этилган.

Калит сўзлар: бошқарув, менежмент, корхона бошқаруви, ишлаб чиқариш, ишлаб чиқариш омиллари, бошқарув самарадорлиги, корхона бошқарувининг иқтисодий механизми.

В статье анализируется эволюция научных взглядов на реализацию управления производственными предприятиями на разных этапах развития производственных отношений в мировой экономике.

Ключевые слова: управление, менеджмент, управление предприятием, производство, факторы производства, эффективность управления, экономический механизм управления предприятием.

The article analyzes the evolution of scientific views on the implementation of the management of production enterprises at different stages of the development of industrial relations in the world economy.

Key words: management, management, enterprise management, production, production factors, management efficiency, economic mechanism of enterprise management.